O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 25 - iyun 481-8-0-Q/24 Surxondaryo viloyati hokimligi

Termiz shahrida jamoat transportida tarif tizimini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi qonunining 5, 12,16-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Termiz shahrida jamoat transportida yo‘l kira haqini to‘lashda transport kartalaridan foydalanuvchi yo‘lovchilar qatnovini oshirish va tabaqalashtirilgan tariflarni joriy etish orqali shahar yo‘lovchi transporti korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori bilan:

Jamoat transportidan foydalanishda yo‘lovchilar uchun qulay tariflarni joriy etish hamda elektron to‘lov tizimini ommalashtirish maqsadida bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan foydalanishga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tariflar qo‘llash, yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan foydalanishda, uning turidan qat’i nazar, kunlik, bir, uch va olti oylik, yillik cheklangan va cheklanmagan tarif rejalarini joriy etish yo‘nalishlarda yo‘l kira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tariflarni belgilash;

vaqtga bog‘langan soatlik, kunlik, uch, olti oylik va yillik limitsiz tariflar rejasini ishlab chiqish va ularni elektron to‘lov tarifiga nisbatan 30 foizga yuqori etib belgilash hamda tariflarni kelishish va Surxondaryo viloyati hokimining qarori bilan tasdiqlash belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Termiz shahri jamoat transporti uchun to‘lovlarda shaffoflikni ta’minlash, yo‘l kira haqini to‘lashda elektron to‘lov turlaridan foydalanishni rag‘batlantirish hamda avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini rivojlantirish maqsadida yo‘l kira haqi to‘lovi naqd pulsiz

usulda amalga oshirilgan hollarda o‘rnatilgan cheklangan tarifga nisbatan 30 foizgacha miqdorda ustama qo‘llash hamda tarif rejalarining narxlarini qatnovlar soniga bog‘lash tizimi joriy etilsin.

Bunda:

Termiz shahri hududida shahar yo‘lovchilar transporti avtobuslarda qatnovlarni amalga oshirish uchun cheklangan tariflar miqdori 1-2-ilovalarga muvofiq:

a) Bir yo‘lovchi uchun qatnov naqd pul va bank kartalari orqali amalga oshirilganda cheklangan tarif miqdori 2000 (ikki ming) so‘m;

b) Bir yo‘lovchi uchun qatnov transport kartalari va elektron to‘lov tizimi (ATTO) orqali amalga oshirilganda bir martalik cheklangan tarif miqdori – 1800 (bir ming sakkiz yuz) so‘m etib belgilansin.

3. Termiz shahar hokimligi (O‘.To‘rayev), viloyat Transport boshqarmasi (I.Ibragimov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari va ekspertlarni jalb qilgan holda:

a) aholi orasida:

yangi tashkil etiladigan jamoat transporti yo‘nalishlarining afzalligi, qulayligi, tezkorligi hamda muntazamligi;

jamoat transporti elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishning hamda tabaqalashtirilgan tariflarning afzalliklari va qulayliklari keng yoritilishini ta’minlasin;

b) tadbirkorlik subyektlari orasida “bosib o‘tilgan yo‘l”va “sifat” mezonlari bo‘yicha bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqqan holda jamoat transporti faoliyatini moliyalashtirishning yangi tizimi jozibadorligi va kafolatlangan biznesga aylanayotganligi yuzasidan brifinglar o‘tkazsin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov, viloyat Transport boshqarmasi (I.Ibragimov), Termiz shahar hokimligi (O‘.To‘rayev) birgalikda:

Termiz shahri jamoat transportida elektron to‘lov tizimini keng joriy etilishini inobatga olgan holda aholini yetarli miqdorda transport kartalari bilan ta’minlash;

shahar hududida transport kartalarini sotish shoxobchalarini tashkil etish yuzasidan zaruriy choralar ko‘rsin.

5. Viloyat Transport boshqarmasi (I.Ibragimov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, o‘n kun muddatda qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

6. Viloyat hokimining 2023-yil 20-noyabrdagi “Viloyat hududidagi shahar, shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo‘lovchilar transportida yo‘lovchi va bagaj tashish tariflarini belgilash to‘g‘risida”gi 583-8-0-Q/23-sonli qarorining 1-bandining v-kichik bandiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (A.Norqobilov)ga ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi **U.B.Qosimov**

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 25-iyundagi
481-8-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qatnov soniga bog‘liq holda jamoat transportida transport kartalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha tariflar

MIQDORI

T/R	**Tarif rejalarining nomlanishi**	**Tarif turlari** (kun)	**Tarif rejalarining narxi,** (so‘m)
1.	“AV” avtobus – aholi uchun	1	6000
		5	23000
		7	30000
		10	47000
		15	71000
		20	94000
		30	140000
		90	400000
		180	720000
		365	1350000
T/R	**Tarif rejalarining nomlanishi**	**Tarif turlari** (kun)	**Tarif rejalarining narxi,** (so‘m)
2.	“B” bepul – O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq transportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun	30	0

Surxondaryo viloyat hokimining
2024-yil 25-iyundagi
481-8-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Elektron to‘lov tizimlari (transport kartalari)dan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli tariflar
MIQDORI

T/R	**Tarif rejalarining nomlanishi**	**To‘lov tizimi**	**Tarif rejalarining narxi,** so‘m
1.	1 soatlik A+A+A+A	Birinchi avtobusda to‘lov	1800
		Ikkinchi avtobusda to‘lov	800
		Uchinchi va keying avtobuslarda to‘lov	0

Izoh:

Ushbu tariflar Brutto-shartnomaga o‘tkazilgan yo‘nalishlarda qo‘llaniladi.

A- avtobus;

Yo‘lovchi birinchi transportga chiqishdagi to‘lov qilingan vaqtdan boshlab hisob davri boshlanadi.

Avtobusning faqat old eshiklaridan chiqishga ruxsat etiladi.